ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

HARBIY SAN'AT RIVOJINING TARIXIY JIHATLARI

Rozimova Yorqinoy Yuldashevna

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi, dotsent, mayor.

Annotatsiya: Ushbu mazkur maqolada harbiy sa'nat rivojining Amir Temur davrida tarixiy jihatlar yoritilgan. Unda Amir Temur qo'shin tarkibi Temur tuzuklardagi xavsizlikni ta'minlash choralari mamlakat boshqaruvi shuningdek Temur saltanatidagi adolatlilik bo'yicha ma'lumotlar bundan tashqari Amir Temur qo'shinining qismlarga ajralishi va bugungi kundagi harbiy san'atning rivojlanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, temur tuzuklari, harbiy san'at, ijtimoiy masalalar, harbiy urushlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические аспекты развития военного искусства в период правления Амира Темура. В ней освещаются состав армии Амира Темура, меры по обеспечению безопасности в конституциях Тимура, сведения об управлении страной, а также правосудии в империи Тимура, кроме того, разделение армии Амира Темура на части и развитие военного искусства в наши дни.

Ключевые слова: Амир Темур, конституции Тимура, военное искусство, социальные вопросы, военные войны.

Abstract: This article covers the historical aspects of the development of military art during the reign of Amir Temur. It covers the composition of Amir Temur's army, measures to ensure security in the Timurian constitutions, information on the governance of the country, as well as justice in the Timurian empire, in addition, the division of Amir Temur's army into parts and the development of military art today.

Keywords: Amir Temur, Timurian constitutions, military art, social issues, military wars.

O'zbek xalqi juda qadimiy va boy tarixga ega. Bu tarixning eng yorqin va shonli sahifalarini buyuk davlat arbobi va sarkarda, Sohibqiron Amir Temur bobomizning hayoti va faoliyati tashkil etadi. Mana, qariyb yetti asrdirki, bu ulug' zotning Shonu shuhrati, donoligi va mahoratiga bo'lgan qiziqish jahonning turli mamlakatlarida tobora ortib bormoqda.

Amir Temur qo'shini tarkibida maxsus bo'linmalar joriy qilingan bo'lib, harbiy yurishlar davomida o'rda sifatida joylashtirilgan qo'shin qarorgohlari ular tomonidan qo'riqlangan. Tartibni saqlash, savdogarlar va oziq-ovqatlarning narxlarini domiy nazorat qilib borish hamda o'g'irliklarning oldini olish vazifalari qarorgohdagi mirshablar tomonidan amalga oshirilgan. Qarorgohdan tashqaridagi xavfsizlikni nazorat qilish va ta'minlash ishlari mirshablardan tashkil topgan to'rtta maxsus guruh tomonidan amalga oshirilgan. Ta'kidlash joizki, dushman tomonidan qo'lga tushgan mansabdor shaxslarni ya'ni lashkarboshilarni hibsda saqlab, soqchi bo'linmalari yordamida qo'riqlab turilgan. Xizmat olib borish vaqtida parokandalikka yo'l qo'ymaslik maqsadida mazkur bo'linmalarning o'z o'rni – paroli mavjud bo'lgan. Temur tuzuklarida huquqni muxofaza qiluvchi idoralariga o'xshash bevosita tuzilmalar tilga olinmagan bo'lsa-da, harbiylarning tarkibida faoliyat yo'nalishlari, vazifalari va funksiyalari jihatidan yaqin bo'lgan maxsus bo'linmalar mavjud bo'lganligini kuzatish mumkin.

Temur saltanatida xavfsizlik ta'minlash bilan shug'ullangan davlat xizmatchilaridan yana biri "arzbegi" deb nomlanib, u mamlakatda sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini bildiruvchilardan tushgan ariza, shikoyat va takliflarni hukmdorga yetkazib turishga mas'ul bo'lgan. Shu bilan birga dargohdagi adolat amiri turli o'lka va shaharlarda sipoh va raiyat orasida urf-odatlarga

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

oid janjalli jarayonlardan habardor bo‘lib, oliy hukmdorga hisobot va ma’lumotlar taqdim etgan. Bu ikki mansabdor shaxs tomonidan joylarda ro‘y berayotgan adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar haqida to‘liq ma’lumot olingach, maxsus vakil – aminlar joylarda voqeani o‘rganib, tegishli choralar ko‘rishgan.

Mamlakat boshqarishuvidagi xavfsizlikni ta’minlashda Amir Temurning maxfiy xizmati muhim o‘rin tutgan. Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Sohibqiron Temur o‘z yerlarining barcha tomonlariga ishonchli ayg‘oqchilarini tarqatib, qolgan mulklariga esa josuslar qo‘ygan edi. Josuslarning bunisi Qohirada, Muiziyada bo‘lsa, unisi Damashqda, Shamiysoniyadagi so‘fiylardan biri edi. Ulardan biri chakanafurush bo‘lsa, ikkinchisi yirik savdogar, badxulq polvon va buzuqi dorboz, jafokor va hunarmand, munajjim va o‘z tabiaticha ish qiladigan, gap-chinoz qalandarlaru sayyoh darveshlar, dengizchi mallohlaru, quruqlikdagi sayyohlar, zarofatli meshkoblar, latofatli etikdo‘zlar, alvasti va hiylakor Dalli misoli firibgar kampirlar edi. Ular davrining razvedkachilari – tingchi, xabargir, darakchi, josus va ayg‘oqchilar sifatida muhim axborotni yetkazib turishar edi. Ayniqsa, bu borada Amir Temurga Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband tariqatlarining xolis xizmatlari katta bo‘lgan.

Temur tuzuklarining “Raiyatdan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshiruvchi kishilar tuzugi”da keltirilganidek, Amir Temurning amri bilan katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar, faqiru miskinlarga ovqat beriladigan joy, kasallar uchun shifoxonalar bilan bir qatorda, har bir shaharda dor ulimorat (hukmdor saroyi) va dor ul-adolat (qozixona) qurdirilgan. Shu bilan birga, joylarda aholini va ekinlarni qo‘riqlovchi posbonlar tayinlangan.

Temur saltanatida adolat bosh mezon bo‘lgan. Shuning uchun davlat xizmatida bo‘lganlarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi va xulq-atvoriga alohida urg‘u berilgan. Xususan, Temur tuzuklarida keltirilganidek, har yerning g‘arazgo‘y, tuhmatchi va nafsi buzuq kishilarining tuhmat so‘zlari bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kim jazolanishiga yo‘l qo‘yilmagan. Birovning gunohi to‘rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, u gunohiga yarasha jazolanishi ko‘zda tutilgan. Sipohiylardan birortasi raiyatning xonadoniga zo‘rlik bilan kirishi, ot-ulovini tortib olishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Harbiy san’at tarixida Sohibqiron Amir Temurni haqli ravishda jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida e’tirof etilishi bejiz emas. Buyuk bobomizning harbiy iste’dodi asosan ikki yo‘nalishda:

1. Mohir harbiy tashkilotchi;
2. Atoqli sarkarda sifatida namoyon bo‘lgan.

Amir Temur tuzgan harbiy qo‘shin o‘ta intizomli bo‘lgan. U jang vaqtida qo‘shin qismlarini san’atkorona boshqargan, harbiy kuchlarini o‘z vaqtida zarur joylarga ustalik bilan yo‘llagan, har qanday to‘siq va g‘ovlarni tadbirkorlik bilan yengib, lashkarning jangovar ruhini zarur darajada saqlashga muyassar bo‘lgan. Qo‘shinlari tarkibi Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo‘g‘uliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari joylardan yig‘ilgan askarlardan iborat bo‘lgan. Qo‘shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilinib, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashib borgan. Eng ilg‘or qurol-aslahalar bilan qurollangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, bayrog‘i va tig‘i bilan farqlanib turgan. Bunday farqlanish jang paytida qo‘shinni mohirona boshqarish uchun Amir Temurga juda qo‘l kelgan.

Bosqinchilar bilan o‘nlab marta mardona janglar qilgan Amir Temurni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixchi Ibn Arabshoh uning kiyofasini quyidagicha tasvirlagan:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

“Temur baland bo‘yli, qadimiy pahlavonlarday ulkan qomatli, yelkalari keng, yo‘g‘on ovozli, ikki ko‘zi bamisoli ikki yoniq, shamday olovli, badani pishiq, xuddi tosh misoli qattiq, o‘limdan qo‘rqmaydigan, vazmin odam edi” .

«Temur tuzuklari»da ta’kidlanishicha, safar chog‘ida oddiy askarlarning har o‘n sakkiztasiga bitta chodir berilgan. Har bir jangchi ikkita ot, yoy, sovut, qilich, juvoldiz, qop, o‘nta nina, arra va teri xaltaga ega bo‘lgan. Sara jangchilarning har beshtasi bir chodirga joylashgan. Ularning har biri dubulg‘a, sovut, qilich, o‘q-yoy, sadoq va buyruqda ko‘rsatilgan miqdorda ot bilan ta’minlangan. Harbiy san’at sir-asrorini bilgan, dushman safini parokanda qilish yo‘l-yo‘rig‘ini yaxshi egallagan, mushkul paytlarda dadil harakat qiladigan, hech qanday to‘siqdan tap tortmaydigan, qo‘shinda sodir bo‘lishi ehtimoldan xoli bo‘lmagan tartibsizlikni vaqtida bartaraf eta oladigan yovqur va mohir jangchilargina Temurbek tomonidan lashkarboshilikka qo‘yilgan.

Amir Temur qo‘shini yettita taktik qismlarga bo‘lingan va razvedka a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan. Qismlarning janggohda zarur darajada harakat qilishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang chog‘ida boshqarishga alohida e’tibor qaratilgan. Qismlararo aloqa yuqori saviyada bo‘lishi, harbiy boshliqlarning to‘g‘ri tanlanganligi jangovar harakatlar natijasiga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Klavixoning ta’rifiga ko‘ra, temuriy lashkarboshi tinchlik chog‘ida zarhal ip bilan tikilgan havorang satin ko‘ylak kiygan. Uning boshida dur hamda boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan bo‘rk bo‘lgan. Bo‘rkning ostidan uch qator qilib o‘rilgan ikki kokil yelkaga tushib turgan. Elchi bu yo‘sinda o‘rilgan sochlar Temurbek askarlarining nishoni ekanligini alohida qayd etadi. Yurish oldidan Sohibqiron arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, amirzodalar, beklar va amirlarni harbiy kengash — mashvaratga to‘plagan, so‘ngra askar yig‘ish uchun maxsus buyruq e’lon qilingan, qismlar harbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan.

Amir Temurning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlaridan yana biri qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, g‘anim kuchlarini yon tomondan aylanib o‘tib, ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — kanbulning joriy etilishidir. Sarkarda qo‘shiniga Jahongir Sayfuddin, Purhusayn, Oq Bug‘a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Qamariy, O‘rus Bug‘a, Hamza Sulduz, Amir Murizoda, Muhammad Qazg‘on, Sariq Atka va Muzaffar Uch Qaro kabi janglarda shuhrat topgan mahoratli va jasur kishilar rahbarlik qilgan.

Sohibqiron Amir Temur ana shu tarzda o‘z zamonining kuchli va eng jangovar lashkarini tashkil qilishga muvaffaq bo‘lgan. Dushman mudofaasini mohirona yakson qilish, g‘animlarning yirik shaharlariga qo‘qqisdan zarba berish, mustahkam qal’a va qo‘rg‘onlarni uzoq muddat qamal qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko‘lamda qurshovga olish, raqibni ta’qib qilish kabi strategik rejalarni ko‘zlab ish yuritish Sohibqironga faqat g‘alaba olib kelgan. U tashkil qilgan qudratli qo‘shin jahonning o‘sha vaqtdagi eng ilg‘or armiyasi sifatida tan olingan va keyinchalik ham buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar tomonidan e’tirof etilib, bir necha asrlar mobaynida ibrat va andoza vazifasini o‘tagan.

Shubhasiz, bizning bugungi armiyamiz - Vatanimiz himoyachilari uchun ham buyuk bobomiz yaratgan armiya qo‘shinlarining yovqurligi, bahodir jangchilarning dovyurakligi chinakam ibrat timsolidir.

Amir Temur o‘z sarkardalarini o‘ta qadrlagan va e’zozlagan, hurmatini joyiga qo‘ygan. Ularning hayoti xavf-xatar ostida qolganda bor kuch-quvvatini, qobiliyatini, tajribasini ularni bartaraf

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

etish uchun sarflagan. Misrliklar qo‘lida bandi bo‘lgan amir Otlamishni qutqarish yo‘lida Sohibqiron tomonidan olib borilgan ham diplomatik, ham harbiy sa’y-harakatlar fikrimizga yaqqol misol bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shuni ta’kidlash lozimki:

Amir Temurning harbiy san’atning rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyos;

Amir Temur o‘zining adolatli boshqaruv usuli bilan eng qudratli qo‘shinga ega bo‘ldi;

Mardlik, jasorat, ezgulik g‘oyalari har bir sarkarda va askarning hayotiy shioriga aylangan.

Amir Temur tashabbusi bilan shakllangan o‘rta asrning eng qudratli, salohiyatli va intizomli armiyasi, u tomonidan erishilgan g‘alaba va yutuqlar Sohibqiron timsolining harbiy san’at sohasida naqadar buyuk o‘rin tutishidan darak beradi. Biz hozirgi avlod bu bilan doimo faxrlanamiz va Amir Temur bobomiz kabi bo‘lishga intilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Розимова Ё. Ю. СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Россия и мусульманский мир. – 2021. – №. 1 (319). – С. 79-83.
2. Розимова Ё. Ю. Об истории возникновения армии и военного образования в республике Бухара //SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 18.
3. Rozimova Y. THE HEROISM OF UZBEK WOMEN DURING WORLD WAR II //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 120-124.
4. Yu R. Y. MILITARY PATRIOTISM PROBLEMS OF EMOTION FORMATION. IN THE EXAM-PLE OF CADETS OF THE ARMED FORCES ACADEMY //BBC. – 2023. – Т. 4. – С. 29.
5. Yu R. Y. Independent uzbekistan the past, present and future of the armed forces. – 2022.
6. Ахмедов Д. Ў., Ахмедова С. А. AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-MA'RIFATGA E'TIBOR MASALALARI //O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR VA JINOIY HUQUQIY FANLAR. – 2022. – С. 577.
7. O'gli K. M. M. Issues of organization of pre-service military training. – 2021.
8. Snuminska N. V. Galitcka Army infantry units training features and specifics. – 2016.
9. Kolesnykov K. M. Military organization and army command of ancient armies of Northern Black Sea Region. – 2015.
10. Розимова Ё. Ю. ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ ПРОПАГАНДЕ ИГИЛ В СРЕДНЕЙ АЗИИ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА //Наука и мир. – 2015. – Т. 1. – №. 9. – С. 158-160.
11. Musaev M. HISTORICAL ROOTS OF RELIGIOUS TOLERANCE IN UZBEKISTAN //SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 157.